ISLOM DAVLATLARIDA BANK ISHI

Xamroliyeva Moxigul Raxmatali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” fakulteti magistratura bosqichi talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada islomiy bank ishi, uning mazmuni, islom bankining asosiy tamoyillari, islom bankining operatsiyalari va uning o’ziga xosligi to’g’risida bayon etildi. Shuningdek, bugungi kunda islom moliyasi qaysi davlatlarga kirib borgani va amalda qo’llanilayotgani haqida ma’lumot berildi. Islomiy bank operatsiyalarining an’anaviy bank operatsiyalaridan farqi hamda ustunlik tomonlari va kamchiliklari haqida yoritildi. Tadqiqot yakunida O’zbekiston Respublikasi bank tizimiga islom moliyasining kirib kelish jarayoni va bu borada amalga oshirilishi kerak bo’lgan muhim ishlar bo’yicha tavsiyalar berildi.*

Kalit so’zlar: *Islom bank ishi, an’anaviy banklar, Markaziy bank, foiz stavkasi, tizim, moliya, kapital.*

ABSTRACT: *This article analyzes the content of Islamic banking, its basic principles, the main operations of Islamic banking and its uniqueness. This article also provides information on which Islamic finance has entered and is being used in practice today. The article discusses the differences between Islamic banking operations and traditional banking operations, as well as their advantages and disadvantages. At the end of the study, recommendations are presented on the process of introducing Islamic finance into the banking system of the Republic of Uzbekistan and important work to be done in this way.*

Key words: *Islamic banking, traditional banking, Central bank, interest rate, system, finance, capital.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описывается исламское банковское дело, его содержание, основные принципы, операции и особенности. Также представлена информация о странах, в которые проникло исламское финансирование и где оно используется в настоящее время. Выделены различия между операциями исламского и традиционного банковского дела, а также их преимущества и недостатки. В заключение исследования даны рекомендации по процессу внедрения исламского финансирования в банковскую систему Республики Узбекистан и обозначена важная работа, которую необходимо проделать в этом направлении.*

Ключевые слова: *Исламское банковское дело, традиционные банки, Центральный банк, процентная ставка, система, финансы, капитал.*

Kirish

Islom davlatlarida bank ishi nafaqat iqtisodiy faoliyatning muhim qismi, balki shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizim sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, islom davlatlarida bank ishining o’ziga xos jihatlari va rivojlanish tendensiyalarini o’rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Islom banki - bu shariat (islom qonunlari) asosida mijozlarga bank xizmatlarini ko’rsatish va islom iqtisodiyotini rivojlantirish hisoblanadi. Islom qonunlarida barcha qarzlar bo’yicha to’lanadigan foiz sifatida ta’riflangan riba yoki sudxo’rlik qat’iyan taqiqlangan. Shuningdek, islom tamoyilllariga zid deb hisoblangan tovarlar (cho’chqa go’shti, spirtli ichimliklar) va xizmatlar ko’rsatadigan korxonalarga sarmoya kiritish ham mumkin emas[4]. Usbu taqiqlar islomga zid odatlarning oldini olish maqsadida musulmon mamlakatlari tomonidan tarixan qo’llanib keladi. Bugungi kunda islom moliyasi tamoyillari asosida bank xizmatlarini taklif qiluvchi davlatlar soni

dunyo bo’ylab 80 dan ortiq hisoblanib, hatto musulmon bo’lmagan davlatlarda ham islom moliyasi rivojlanib kelmoqda. ISlom moliyasi eng keng tarqalgan davlatlar qatoriga quyidagilar kiradi[5]:

- Saudiya Arabistoni;
- Eron;
- Malayziya;
- Birlashgan Arab Amirliklari;
- Qatar;
- Quvayt;
- Bahrain;
- Pokiston;
- Indoneziya;
- Turkiya;
- Bangladesh;
- Bruney;
- Sudan;
- Qozog’iston.

Bugungi kunda islom bankchiligi 80 dan ortiq davlatlarda faoliyat yuritib, global moliya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, Saudiya Arabistoni, Malayziya, BAA va Eron kabi davlatlar islom moliyasi tizimining eng yirik markazlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasiga esa islom bank tizimi joriy etilish jarayonida hisoblanadi[3].

Maqolaning asosiy maqsadi - islom bankining ahamiyati, ushbu tizim taklif qiladigan asosiy bank xizmatlari, an’anaviy bank xizmatlaridan farqi hamda O'zbekiston Respublikasida joriy etish imkoniyatlari haqida yoritib berishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro bank amaliyotida islom moliyasining joriy etilishi 20-asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. Islom banki, islom moliyasi bo'yicha Pokistonlik iqtisodchi olim Muhammad Umar Chapra fikriga ko'ra, islom moliyasining asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashdan iboratdir. U islom bank tizimi foizga asoslangan an'anaviy bank tizimiga nisbatan barqarorroq ekanligini ta'minlaydi. Malayziyalik olim Abbas Mirakhor esa islom moliyasini "risklarni adolatli taqsimlashga asoslangan moliyaviy tizim" deb baholaydi va ushbu tizim iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashini qayd etadi. Shuningdek, angliyalik iqtisodchi olim Mervyn King islom moliyasining ayrim tamoyillari, xususan risklarni bo'lishish va aktivlarga asoslangan moliyalashtirish tizimi global moliyaviy inqirozlarni kamaytirishga yordam berishini e'tirof etgan[6].

Ko'plab iqtisodchi olimlarning fikricha, islom moliyasi foizsiz moliyalashtirish, risklarni adolatli taqsimlash hamda ijtimoiy tenglik tamoyillariga asoslangan bo'lib, u zamonaviy moliya tizimida barqaror va muqobil tizim sifatida e'tirof etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islom bank tizimida bir nechta asosiy tamoyillar mavjud bo'lib, islom davlatlari ushbu tamoyillar asosida bank tizimini tashkil etadi. Ular quyidagilar:

- foiz to'lamaslik tamoyili (riba);
- spekulyativ amallarni moliyalashtirmaslik tamoyili (maysir);
- ortiqcha riskka yo'l qo'ymaslik tamoyili (g'arar);
- adolatsiz ustunlikka ega bo'lmaslik (jol);
- korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik (rishva)[1].

Riba - bu foizga berish va foizga olishdir. Riba berilgan qarzning qiymatini o'sishi natjasida va foiz ko'rinishida daromad olishni anglatadi. An'anaviy banklarda berilgan kreditdan foydalanish samaradorligidan qat'iy

nazar foiz ko’rinishida daromad olinadi. Islom banklarida esa, berilgan kreditdan olinadigan daromad kreditdan foydalanish natijasida olingan foydaga adolatli sherik bo’lish orqali olinadi.

Maysir - spekulyativ bitim bo’lib, daromad olish maqsadida oldi-sotdi qilish hisoblanadi. Islom banklarida qimmatli qog’ozlarni foyda olish maqsadida sotib olish va sotishga ruxsat etilmaydi.

G’arar - shartnomaning muddati yoki predmeti noaniq bo’lgan sharoitda o’zi ega bo’lmagan tovarni sotishga qo’yilgan taqiqdir. Shariatda shartnomada noaniqlikning bo’lishi man etilgan. Shartnomada ma’lumotlar (tovar summasi, tovarning turi, tovarni yetkazib berish muddati, tovar summasini to’lash vaqti, to’lov valyutasi, tomonlarning manzili, nomi) to’liq aks ettirilgan bo’lishi shart.

Adolatsiz ustunlikka ega bo’lmaslik tamoyili - bu qonunda ruxsat etilgan, ammo shariat qoidalariga zid keladigan natijalarga olib keladigan hamda amaldagi huquqiy me’yorlardan foydalangan holda raqobat kurashida ustunlikka erishishni ta’qiqlash hisoblanadi[2].

Islom banklarida amalga oshiriladigan operatsiyalar quyidagilar hisoblanadi:

1. **Mudaraba** - kreditlash shakli hisoblanib, investitsiya loyihasini moliyalashtirish uchun kredit beradi, ammo loyihani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo’lmaydi. Loyihani amalga oshirish natijasida olingan foyda bank va mudarribning moliyalashtirishdagi ulushiga mos ravishda taqsimlanadi (ko’pchilik hollarda 60/40 nisbat qo’llaniladi). Loyiha o’zini oqlay olmasligi natijasida ko’riladigan barcha zararni bank o’z zimmasiga oladi. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish bilan bog’liq bo’lgan barcha risklar islom banklarining zimmasida bo’lganligi sababli kreditlashning ushbu shakli keng qo’llanilmaydi.

2. **Musharaka** - arabcha so’z bo’lib, taqsimlash, ulush degan ma’noni bildiradi. Musharakada investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qo’shma kompaniya tuziladi va kompaniyaning mulkdorlaridan biri bo’lib

islom banki hisoblanadi. Shartnoma tomonlarning roziligi bilan tuzilishi va bunda bosim o'tkazish, aldash, chalg'itish bo'lmasligi kerak. Musharakada islom banki loyihani moliyalashtirish uchun kredit beradi va loyihani moliyalashtirishdagi ishtirokiga bog'liq ravishda foydaga ham, zararga ham sherik bo'ladi, ya'ni loyihani boshqarishda ishtirok etadi. Bunda hamkorlar o'rtasida foydani taqsimlash nisbati shartnoma tuzilayotgan paytda kelishib olinishi kerak. Agar ushbu nisbat aniqlab olinmagan bo'lsa, unda shartnoma haqiqiy deb hisoblanmaydi.

3. **Qadr-al-hasan** - bu foizsiz ssuda bo'lib, islom banki tomonidan ma'lum summada beriladi. Kreditni olgan mijoz ko'rsatilgan muddatda kreditni qaytaradi. U olgan foydasining bir qismini o'z ixtiyori bilan mukofot sifatida bankka berishi mumkin. Kreditning ushbu shakli moddiy yordamni eslatadi.

4. **Ijor-ijara** operatsiyasi. Bank operatsiyasining ijor turiga asosan tadbirkor ko'chmas mulk yoki ishlab chiqarish vositasini bankdan ijaraga oladi. Islom banklarining ushbu operatsiyasi bugungi kundagi an'anaviy banklarning lizing operatsiyalariga o'xshash bo'lib, u bank va tadbirkor o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

5. **Ijor va iqtino** - bu sotib olish huquqi bo'lgan ijara hisoblanib, bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, bank tomonidan ijaraga berilgan ko'chmas mulk yoki ishlab chiqarish vositasi ijara muddati tugagach mijozning mulkiga aylanadi. Albatta, bunga qadar ijara obyektining kelishilgan narxi belgilangan muddat ichida to'lab bo'linishi lozim.


6. **Zakot** - moli hisobga yetgan davlatmand musulmonlardagi kambag'allar haqi hisoblanadi. Bank tomonidan zakotlarni jamlash uchun Zakot uyi tashkil etiladi. O'z navbatida bank Zakot uyiga tushgan mablag'larni kambag'allar turmush tarzini yaxshilashga, ularni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishga va boshqa jamoat manfaatidagi ishlarga safarbar qiladi.

7. **Murobaha** - tijorat operatsiyalarini moliyalashtirish hisoblanadi. Islom banklari operatsiyalarining ushbu turida bank muayyan tijorat operatsiyalarini moliyalashtiradi va shartnomada ko'rsatilgan foydaga ega bo'ladi. Islom banklaridagi murobaha operatsiyasi an'anaviy banklarning iste'mol kreditiga o'xshab ketadi.

Ayrim faoliyat turlariga sarmoya kiritishga ruxsat berilmaydi. Ular quyidagilar:

- alkogol va tamaki ishlab chiqarish va sotish;
- qurol ishlab chiqarish va savdo;
- halol bo'lmagan go'sht - cho'chqa go'shtini ishlab chiqarish va qayta ishlash;
- qimor, lotariyalar;
- kattalar uchun ko'ngilochar sanoati.

Islom davlatlarida islom moliyasi, islom bank ishi tamoyillariga qat'iy rioya qilinadi. Islom moliyasi keng tarqalgan davlatlar qatoriga Saudiya Arabistoni, Malayziya, BAA va Eron kirib, ushbu davlatlarda bank tizimi Davlat Markaziy banklari tomonidan tartibga solinadi.



1-rasm. Islom bank tizimida keng tarqalgan davlatlar[7].

Yuqoridagi grafikdan ko’rinib turibdiki, global islom bank aktivlarining eng katta ulushi Eron va Saudiya Arabistoniga to’g’ri keladi. Jumladan, Eron taxminan 28%, Saudiya Arabistoni esa 25% ulush bilan yetakchi o’rinlarni egallab turibdi. Bu holat ushbu davlatlarda islom moliyasi tizimi keng rivojlanganligi hamda bank operatsiyalarining asosiy qismi shariat tamoyillari asosida amalga oshirilishini bildiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom banki an’anaviy banklardan foiz ya’ni ribani taqiqlashi hamda ba’zi taqiqlangan faoliyat turlarini moliyalashtirmasligi bilan an’anaviy banklardan ajralib turadi. Shuningdek, islom banklarida zakot ham mavjud bo’lib, bu borada Zakot uylari tashkil etiladi va davlatmand odamlardagi kambag’allarni ulushidan ularga hayot tarzini yaxshilash uchun ajratiladi. Islom moliyasi ko’plab mamlakatlar bank tizimida qo’llanilib, ulardan eng keng tarqalgan davlatlar ro’yxati yuqorida keltirilgan va ushbu keltirilgan davlatlar orasida Saudiya Arabistoni va Eron yuqori o’rinni egallaydi. Ko’plab davlatlarda islom banklari bugungi kunda 1 million AQSh dollardan yuqori kapitalga ega va bu yuqori ko’rsatkich hisoblanadi[8].

Islom bank operatsiyalari hali O’zbekistonda joriy etilmagan, ammo kirib kelish jarayonida. O’zbekiston Respublikasi ham musulmon davlatlar qatorida hisoblanib, hozirda faqat an’anaviy bank tizimi faoliyat yuritmoqda. Lekin yaqin kelajakda an’anaviy tijorat banklar operatsiyalari orasiga islom shariatlariga asoslangan islom bank xizmatlarini ham kiritadi. Bu borada mijozlar o’rtasida ko’plab islom bank xizmatlarini tanlash holatlarini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
2. Islamic Finance & Markets, 2002.
3. Islamic Banking Processes and Products, September 2017.
4. Ibrahim, M.H., Alam, N., 2018. Islamic economics and Islamic finance in the world economy. World Econ. 41 (3), 668–673.
5. Amr M & Altiby Ahmed T(2010), Islamic Banking: How to manage risk and improve profitability?
6. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2023.
7. https://quronvasunnat.uz/quron
8. Islamic Development Bank - https://www.isdb.org/